UNIVERSAL JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES
ISSN 2992 – 8788
https://sr-journals.org/index.php/UJMTCS

Tarixiy mahalla markazlarini barqaror regeneratsiya qilish va zamonaviy funksiyalarga moslashtirish (Samarqand shahri misolida)

S.M.Suvankulov
Sam DPI assistenti saydullasuvankulov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Samarqandning tarixiy mahalla markazlari holati tahlil qilinib, ulardagi arxitekturaviy muammolari to‘g‘risida fikrlar yuritilib, mavjud ayrim mahalla markazlari me’moriy holati tanqidiy qaraldi, an’anaviylik tamoyillari asosidagi takliflar berilib, ularni saqlash va rivojlantirishning zamonaviy arxitektura-shaharsozlik yechimlari taklif etiladi. Tadqiqot natijasida tarixiy merosni asrash, funksional regeneratsiya, mikroiqlimni tiklash, jamoatchilik markazlarini rivojlantirish hamda raqamli monitoring tizimlarini joriy etishga asoslangan model ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Mahalla markazi, ansambl, tarixiy meros, masjid, choyxona, nonvoyxona, Yominiy, Qo‘shhovuz, S‘zangaron, Go‘ri-Amir, hovuz, regeneratsiya, barqaror rivojlanish, raqamli monitoring, shaharsozlik.

Аннотация. В статье анализируется состояние исторических квартальных центров Самарканда, рассматриваются их архитектурные проблемы, критически оценивается архитектурное состояние некоторых существующих квартальных центров, предлагаются решения, основанные на принципах традиционализма, и даются современные архитектурно-градостроительные решения для их сохранения и развития. В результате исследования разработана модель, основанная на сохранении исторического наследия, функциональной регенерации, восстановлении микроклимата, развитии общественных центров и внедрении цифровых систем мониторинга.

Ключевые слова: районный центр, ансамбль, историческое наследие, мечеть, чайхана, пекарня, Яминий, Кушавуз, Сузангарон, Гури-Эмир, бассейн, регенерация, устойчивое развитие, цифровой мониторинг, городское планирование.

Abstract. The article analyzes the state of the historical neighborhood centers of Samarkand, discusses their architectural problems, critically examines the architectural state of some existing neighborhood centers, makes proposals based on the principles of traditionalism, and proposes modern architectural and urban planning solutions for their preservation and development. As a result of the research, a model was developed based on the preservation of historical heritage, functional regeneration, restoration of the microclimate, development of community centers, and the introduction of digital monitoring systems.

Keywords: Neighborhood center, ensemble, historical heritage, mosque, teahouse, bakery, Yaminiy, Qushhavuz, Suzangaron, Guri-Emir, pool, regeneration, sustainable development, digital monitoring, urban planning.

Kirish. Global urbanizatsiya sharoitida tarixiy mahalla markazlarini saqlash va ulardan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Samarqanddagi ko‘plab mahalla markazlari arxitektura-kompozitsion yaxlitligini qisman yo‘qotgan bo‘lib, ularni zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish zarurati mavjud.

Yurtimiz shaharsozlik tizimida mahalla markazlarining rivojlanish yo‘llari, ularning kompozitsion-muhit sifatlari va boshqa arxitektura xususiyatlari Sharq arxitekturasida faqatgina noyob ob’yektlar bo‘libgina qolmay, ular zamonaviy shaharsozlik amaliyotida ham katta ahamiyat kasb etadi.

UNIVERSAL JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES
ISSN 2992 – 8788
https://sr-journals.org/index.php/UJMTCS

Taassufki, hozirgi vaqtda tarixan shakllangan shaharsozlik tarkibida «qimmatli qadriyat» tamoyili anchagina yo‘qotilgan. Boshqacha qilib aytganda, mahalla markazlari rivojlanishining tarixan shakllangan tizimi ko‘p joylarda buzilgan. Ko‘pincha rejada ob’yektlar joylashishida aniq bir tizim muammosi uchraydi. Bu narsa turar-joy binolarini qurish jarayonida shahar muhit-rejalashtirish tuzilishidagi deformatsiya bilan tushuntiriladi. Masjidlarning bir qismi yo‘qolib ketganligi uchun bunday o‘zgarishlarning ko‘lami bundan ham katta bo‘lgan degan taxminni beradi. Irrigatsion tizimlarning yo‘qotilishi tarixiy xududlarda suv zaxiralarining kamayishi oqibatda obodonlashtirish tizimiga putur yetishiga olib kelgan. Bir so‘z bilan aytganda, bino – vayrona, foydalanish uchun yaroqsiz joyga aylanib qolgan.



Eski shahar mahalla markazi ko‘rinishi

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Tarixiy shaharni saqlash va regeneratsiya qilish masalalari zamonaviy shaharsozlik va me’morchilik fanlarining yo’nalishlaridan biridir. Xalqaro miqyosda tarixiy merosni asrash jarayonlari **ICOMOS** tomonidan ishlab chiqarilgan xartiyalar hamda “UNESCO” ning tarixiy shaharlari bo‘yicha tavsiyalarida o‘z aksini topgan. Ushbu hujjatlarda tarixiy muhitni saqlash bilan birga uni zamonaviy funksiyalarga moslashtirish zarurligi olg‘a suriladi.



Sherdor madrasasidan A.Temur jom’e masjidiga qaragan ko‘cha

Mahalla markazlarining barcha tizimlariga oid masalalar G.A.Pugachenkova, L.I. Rempel va boshqa olimlarning tadqiqotida yoritilgan. Ularning ilmiy ishlarida Samarqandning tarixiy mahallalari, me’moriy ansambllari va an’anaviy jamoat markazlarining shakllanish jarayonida tahlil qilingan. Mavjud tarixiy mahalla markazlarini qayta tiklash, zamonaviy funktsiyalar bilan boyitish va asrsh tizimlarini joriy etish muammolari yuqori darajada o‘rganilmagan. Ushbu mavzu bo‘yicha Samarqand shahri misolida ko‘rib chiqilib, ularni saqlash va yaxshilashning zamonaviy yechimlari taklif etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda Samarqand shahrining tarixiy mahalla markazlarini qayta tiklash va zamonaviy funksiyalarga moslashtirish masalalari kompleks ishlab chiqish asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy mahallalarga doir ilmiy maqolalar va rivojlanishiga oid adabiyotlar, huquqiy hujjatlar va xalqaro tajribalar tahlili olib borildi. Samarqand shahridagi Yominiy, Qo‘shhovuz, So‘zangaron va Go‘ri-Amir mahallalari misolida dala kuzatuvlari va vizual tahlil usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tarixiy-genetik tahlil, funksional-fazoviy tahlil hamda arxitektura-shaharsozlik tuzatish usullaridan foydalanish mumkin. Mahalla markazlarining mavjud holati, jamoat markazlari funktsiyalari, tarixiy muhit bilan uyg‘unligi va sayohat sig‘imi ko‘lami ham o‘rganildi.

Olingan manbalar asosida tarixiy merosni saqlash, jamoa makonlarini yaxshilash, mikroiqlimni yaxshilash va zamonaviy xizmatlarni integratsiyalashgan regeneratsiya modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqot manbalari tarixiy mahalla markazlarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda markaz tarkibida faqat ba’zi binolar ya’ni mahalla markazlarigina saqlanib qolgan. Ular nafaqat me’morchilik yodgorliklari ko‘rinishida emas, balki mahalla a’zolari to‘planadigan va dam oladigan markaz sifatida ham yetib kelgan. Mahalla markazlari bugungi kunda choyxona va boshqa umumiy-maishiy va ma’muriy-xo‘jalik muassasalariga aylangan.



Qayta rekonstruktsiya qilingan Muborak mahalla markazi binosi

Samarqand shahri Chiroqchi ko‘chasidagi Yominiy mahalla markazidagi masjid binosi yarim vayrona holatida. Uning butunlay vayronaga aylanishini oldini olish uchun zudlik bilan qayta tiklash ishlarini amalga oshirish kerak. Ansamblning yog‘ochdan yasalgan qismidan foydalanilmaydi. Uning yonidan rejasiz ravishda mahalla klubi binosi qurilgan. Masjid devorlari katta yoriqlarga ega va sharsimon gumbazni zo‘rg‘a tutib turibdi. Gumbazning holati qoniqarsiz, mustahkamlashga muhtoj. Umuman olganda majmua texnik avariya holatida. Hovuz ko‘milib ketgan, minora saqlanib qolmagan.

Samarqand shahri So‘zangaron ko‘chasidagi Ibroxim Xo‘ja (XIX asr oxiri) masjidi. Majmua qurilganidan buyon bir marta ta’mirlash amalga oshirilgan. Maxalla oqsoqollarning ta’kidlashicha, ta’mirlashgacha masjidda nonvoyxona joylashgan, natijada markaziy ustun deyarli kuyib ketgan. Masjidning janubi-garbiy burchagiga xujra taqalib turadi.



Ushbu Muborak mahallasi 2026 yil rekonstruktsiya qilinishga tushgan hozirda ta’mirlash ishlari olib borilayotgan qismi

Dastlabki xolatini deyarli yo‘qotib bo‘lgan. Kirish yo‘lida ravoqlargina saqlanib qolgan. Taxorataxona buzilib ketgan, u masjiddan biroz chetda joylashgan bo‘lib, gumbaz bilan yopilgan, ichiga suv to‘ldirilgan hovuz bo‘lgan. Hovuz atrofiga ibodatga kelganlar joylashishgan va nomoz oldidan tahorat olishgan. Ko‘chaning narigi tomonida hovuz va choyxona bor. Hovuz masjid qurilishi vaqti bilan bir vaqtda bunyod etilgan. Xozirga vaqtda u chiqindilar bilan to‘lgan.

Mahalla ansambllarining yomon saqlanganligi va o‘zboshimchalik bilan rekonstruksiya qilinishiga misollar shunchalik ko‘pki, ularni bir maqolaga sig‘dirib bo‘lmaydi. Foydalanish va ishlatilishga yaroqli bo‘lganlarini sanab o‘tish ancha oson tuyuladi. Lekin ular ham ta’mir talab holatda. Bularning barchasi saqlanib qolgan me’morchilik majmualarining soni va



Eski shaharda Rus tizimi davrida qurilgan tur-arjoy binolari

jismoniy holatining yomonlashish tendensiyasi to‘g‘risida o‘ylashga majbur qiladi. Lekin dastlabki sifatlarining yo‘qotilishiga qaramasdan tarixan shakllangan mahalla markazlari barchaning e’tiborini tortadi.

Barcha mahalla markazlarining ahvolini yomon deb bo‘lmaydi. Registon maydoni yaqinidagi, Qo‘shhovuz mahallasi markazi ob’ektlarining kattagina qismi funksional extiyojlarni qondiradi, badiiy-estetik jihatlariga keladigan bo‘lsak, ular hali yetarli darajada emas. Shunday ob’yektlarga misol tariqasida Go‘ri Amir mahalla markazini keltirish mumkin. Majmua quyidagilarni o‘z tarkibiga olgan: mahalla raisi, xotin-qizlar qo‘mitasi xonalari, choyxona va xo‘jalik-maishiy xonalari. Hovlida uncha katta bo‘lmagan suv hovzasi bor, natijada foydalanilayotgan hududda yaxshigina mikroiqlim xosil bo‘lgan.

Majmuaning funksional tarkibiy qismidagi asosiy element ulug‘vatan urushi qatnashchilari ramzi tushurilgan fasad va halok bo‘lganlarning nomlari tushirilgan memorial taxtadir. Majmuaning bu elementi o‘sib kelayotgan avlodni o‘z xalqining o‘tmishiga xurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan.



Eski shaharda Rus tizimi davrida qurilgan binolar

Xalq arxitekturasida uzviylik jihatlarining yo‘qligi, shu bilan bir vaqtda muloqotlar va madaniy-maishiy hayotning an’anaviy usullariga intilishi, shaharda o‘zboshimchalik bilan qurilgan binolari ham yaqqol ko‘rsatib turadi.

Loyiha tashkilotlari tomonidan loyihalashtirilgan kundalik ob’yektlar – jamoatchilik markazlari bugungi kunda savdo tashkilotlari sifatida faoliyat yuritmoqda. Ularning ko‘pchiligida binolar nomenklaturasiga an’anaviy mahalla markazlari elementlari – choyxonalar, oqsoqollar xonasi, xotin-qizlar qo‘mitasi xonasi, ba’zida nonvoyxonalar, boshqa xizmat ko‘rsatish shohobchalari paydo bo‘ldi. Ularning hammasi ham to‘liq ishlatilmasada, qaysidir ma’noda ular mahalla axolisining hayotida ma’lum rol o‘ynaydi. Bunday ob’yektlar ko‘p jihatdan aholi talablariga mos keladi.

Jamoat maishiy-xizmat ko‘rsatishning mavjud tizimida zamoaviy mahalla markazlari ko‘p qavatli binolar orasida to‘liq kuch bilan ishlamayapti va ular kuchidan to‘liq foydalanilmayapti. Amalda bunday ob’yektlar nafaqat xizmat ko‘rsatishning kerakli darajasini ko‘rsata olmaydi, balki qurilish va foydalanishda qimmatlashishga olib keladi, natijada O‘zbekistonning turli shaharlarida ulardan voz kechilmoqda.



Mahalla markazidagi hovuz favora vazifasini o‘tamoqda



Funksional vazifasini bajarmayotgan mahalla bozorchasi

Bunday markazlarning shahar ichida joylashtirilish masalalari ham e’tirozlarga sabab bo‘ladi. Bu aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq qator sharoitlarga bog‘liq. Markazlar tizimsiz va tarqoq joylashgan. Avvaliga ularni turarjoylar geometrik markazida joylashtirish rejalashtirilgan, keyinchalik ularni magistrallarga yaqinlashtira boshlashgan; ba’zida ikki kvartalning xizmat kursatish markazlari magistralning ikki tomoniga, bir-biriga yaqin joylashtirilgan, bunday xolatda ikkala kvartalning chegarasiga bitta katta markaz qurish maqsadga muvofiqroq bo‘lar edi.

Yangi qurilishlarni amalga oshirishda mahalla markazlarining qurilishini loyixalashtirishga hanuzgacha rasmiyatchilik yuzasidan yondoshib kelinmoqda. Markaz kompozitsiyasi muammosi mustaqil vazifa sifatida qo‘yilmoqda va bizga o‘tgan asrlardan buyon deyarli o‘zgarishsiz o‘tib kelayotgan an’anaviy binolar qurilishi yordamida yetib kelmoqda. Natija bir qarashda kutilmagandek, estetik vazifalarning hal qilinishi kompozitsion binolarning bir xilligiga olib keladi. Bu biz uchun odatiy bo‘lib qolgan zamonaviy binolarga dekorativ panjaralar va tasviriy san’atning boshqa usullari bilan qoplanishi ko‘rinishida, ya’ni qadimiy narsalarga namoyishkorona qarshi qo‘yish yoki hatto yangi narsada qadimiy an’analarga taqlid qilishda namoyon bo‘ladi. Bularning xammasi kerakli samaradan holi emas, lekin shahar muhitining organik yechimi masalasi shoshmashosharlik bilan topilgan milliy qatlamlar ostiga niqoblanadi yoki qadimiylikka tegish istagi yo‘qligini ko‘rsatadi.

Mahalla markazlarining zamonaviy shakllanish yo‘llari ustida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa ma’lum bo‘lganki, ularning ko‘pchiligi talabga javob bermaydi. Avvalo bu talablar arxitektura-shaharsozlik va funksional xususiyatlar bo‘lib, ular hududlar va maxalliy ijtimoiy-maishiy sharoitlarda inobatga olinmagan, bu narsa natijada o‘zboshimchalik bilan binolar qurib olishga olib keladi. Bu qirilishlarda arxitektura merosining degradatsiyasi kuzatiladi va ular quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tarixdan yuzaga kelgan mahalla markazlarida – yodgorlikning hayotiy muhitdan ajralib qolishi (bunda undan faqatgina xo‘jalik-maishiy maqsadlarda foydalanish); majmuaning na arxitekturaviy-badiiy, na makondagi strukturasiga mos kelmaydigan holda tartibsiz foydalanish;

Zamonaviy qurilish va loyihalash amaliyotida – milliy me’morchilik an’analaridan butunlay voz kechish; arxitektura merosidan noto‘g‘ri foydalanish, qadimiy arxitektura usullaridan nusxa olish; namunali loyihalarda xalq me’morchiligiga xos detallardan foydalanish.

Tahlillar Yominiy, Ibrohim Xo‘ja, Qo‘shhovuz va Go‘ri Amir mahalla markazlarida funksional, konstruktiv va estetik muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida quyidagi yechimlar taklif qilindi:

• Tarixiy obyektlarni ilmiy-restavratsiya asosida tiklash;
• Hovuz va yashil hududlarni qayta tashkil etish orqali mikroiqlimni yaxshilash;
• Mahalla markazlarini ko‘p funksiyali jamoat makonlariga aylantirish;
• BIM va GIS texnologiyalari asosida raqamli monitoring tizimini joriy etish;
• Milliy me’moriy an’analarni zamonaviy dizayn bilan integratsiyalash.

Ilmiy yangilik. Tarixiy mahalla markazlarini saqlash va boshqarishda raqamli monitoring, ijtimoiy-faol markazlar hamda ekologik yondashuvlarni birlashtiruvchi kompleks model taklif etildi.

Shunday qilib, mavjud mahalla markazlarini rekonstruksiya qilish va yangilarini qurish sohasida yuzaga kelgan vaziyat loyihalashning zamonaviy usullarini ishlab chiqishni taqazo qiladi, tarixiy merosning arxitektura-kompozitsion, shaharsozlik va funksional an’analarini inobatga olishi va rivoshlantirish shart.

Xulosa. Tarixiy mahalla markazlarini barqaror regeneratsiya qilish Samarqandning madaniy merosini saqlash bilan birga, aholi uchun zamonaviy va qulay jamoat muhitini yaratishga xizmat qiladi. Azaliy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan mahalla tushunchasini Nyu Yorkdagi Yelskiy universiteti ilmiy izlanuvchisi Jerald Shefeld II so‘zlarini keltirib: O‘zbekistondagi bir yillik tadqiqoti natijalari haqida so‘zlarkan, izlanish sohasi arxitekturaga oid bo‘lib, shu bilan birgalikda xalq qadriyatlarini ham o‘rganganligini, aksariyat markaz, majmualar, bezak yo‘nalishlari bevosita milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlarkan, arxitektura ansambllari orasida mahalla ansambli o‘zining ananaviy qadriyatlar asosida yuzaga kelganligi bilan o‘ziga tortganligini aytdi.

O‘zbek xonodonida oilaning butun a’zolari xontaxta atrofida jam bolishib, madaniyat-ma’naviyat, ezgu niyatlar, urf-odatlar, o‘zaro munosabatlar ulkan rejalar haqida suhbatlashilar, ayrim muammoli vaziyatlar muhokama qilinar ekanligini ta’kidlarkan o‘zbek xalqining ushbu odatini rivojlangan g‘arb xalqlariga maqtasa arziguligini aytdi. Mahalla markazlarida xuddi oila dasturxoni atrofidagi kabi munosabatlarning guvohi bo‘lganligini, ayrim masalalar shu yerning o‘zida qonun aralashuvisiz hal etilganini juda yuqori madaniyat va ma’naviyatga yoydi. Bugungi kunda har tomonlama mavqei ortib, o‘z-o‘zini boshqarish institutlari maqomiga erishgan mahalla atalmish dargohning ansambl darajasidagi arxitekturaviy yechimini o‘z mavqeiga mos qilib qo‘yish nafaqat arxitekturaviy majmua qolaversa hokimlik darajasidagi ob’yekt ekanligini ko‘rsatish xalq oldidagi munosib muomala madaniyatini shakillantirishida muhim ahamiyatni ham kasb etadi deb o‘ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abramov M.«Гузары самарканда» Toshkent “O‘zbekiston” 1989 yil
2. Axmedov M.Q. «O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi» - Toshkent.: «O‘zbekiston». 1995
3. Zoxidov P.Sh. «Temur davrining me’moriy qahkashoni» - Toshkent.: «Sharq» 1996.
4. Salimov O.M. «Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashda tadqiqot asoslari». “o‘quv qo‘llanma” T.:, 2013.
5. Suvankulov S.M. «Magistrlik dissertatsiyasi». SamDAQI-2017 yil
6. Sultanova D.N. Mutual harmonization of pictorial and artistic means in the architecture of Uzbekistan монографияISBN: 978-620-3-93073-3 Publisher: LAP LAMBERT Academic Publishing is a trademark of the OmniScriptum S.R.LPublishing group 2021. -Б.102.